RUSIYZABON TALABALARNING SO‘Z BOYLIGINI OSHIRISHDA DIALOGIK MASHQLARDAN FOYDALANISH

Faridun Ilhomjon o‘g‘li Toshmirzayev
Axmadjon Umirbek o‘g‘li Ko‘palov
Toshkent davlat transport universiteti Transport tizimlari boshqaruvi fakulteti
TLA-7 guruh talabasi
Ilmiy rahbar O‘zbek (rus) tili kafedrasi ass.
Izzatullayeva Nigora Djoraxonovna
https://doi.org/10.5281/zenodo.7674343

Annotatsiya: Mazkur maqola transport sohasidagi malakali mutaxasislarni tayyorlashda ularning nutqiy va yozma savodxonligini, oshirish uchun dialogik mashqlardan foydalanish masalalariga bag‘shlangan.

Kalit so‘zlar: madaniyat, ma’naviyat, ta’lim-tarbiya, pedagogik madaniyat.

Annotation: This article is devoted to the issues of using dialogic exercises to improve their oral and written literacy in the training of qualified specialists in the field of transport.

Keywords: culture, spirituality, education, pedagogical culture.

Jamiyatimizning rivojlanishini ta’minlashda, davlatimizning mustaqilligini mustahkamlashda davlat tilining siyosiy ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy anamiyati ulkan. Uning asosida barkamollik, ma’naviyat, tafakkur, qolaversa, insonparvarlik, vatanparvarlik, baynalmilallik tarkib topadi. Ma’lumki, har qanday jamiyatda yosh avlod ta’lim-tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida tashkil etilgan ta’lim-tarbiyaning asosiy maqsadi komil insonni voyaga yetkazishdan iborat. Shaxsni tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon bo‘lib, qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk insonlari jalb etilgan. Ta’lim va tarbiya masalalari hamisha mutafakkir, yozuvchi, olimlar hayolini band qilib kelgan. O‘zbek xalqi o‘z madaniyati va ma’naviyatida komil insonlarni voyaga yetkazishga katta e’tibor bergan. Buning natijasida asrlar davomida aqlu zakovatga, qomusiy bilim va qobiliyatga ega bo‘lgan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va Al-Xorazmiy, Amir Temur va Ulug‘bek, Alisher Navoiy va Bobur kabi komil insonlar yetishib chiqdi va olamga tanildi. Bu buyuk ajdodlarimiz o‘z asarlarida o‘qituvchilik kasbi, uning mashaqqatlari, shuningdek, o‘qituvchi shaxsida aks etishi zarur bo‘lgan sifatlar xususidagi qarashlarini yoritish orqali o‘zlari ham pedagogik madaniyatga ega ekanliklarini namoyon etganlar va o‘zlarining bola tabiati, ularni barkamol inson qilib tarbiyalash haqidagi yorqin mulohazalari bilan ta’lim-tarbiya sohasiga hissalarini qo‘shganlar.

Misol uchun, Abu Nasr Farobiy inson aql-zakovati xususida quyidagi fikrlarni bildirgan:

1. Barcha masalani, muhokama va mulohazani tezda tushuna oladigan, uning ma’nosini anglaydigan, so‘zlovchining maqsadi va aytilgan fikrining chinligini tezda payqay oladigan bo‘lsin;

2. Zehni shu darajada tez va o‘tkir bo‘lsinki, biror narsaning alomatini sezishi bilan bu alomat nimani bildirishini tezda bilib olsin;

3. So‘zlari aniq bo‘lsin, fikrini aytmoqchi bo‘lgan mulohazalarini rovon va ravshan bayon eta olsin;

Buyuk ajdodlarimizning pedagogik madaniyatlari negizini bolani tushuna olish, unga nisbatan insonparvar munosabatda bo‘lish, vaziyatni to‘g‘ri baholash, yuzaga kelish ehtimoli bo‘lgan vaziyatlarni o‘z vaqtida bartaraf etish, pedagogik faoliyatning insoniyligi, jamiyat taraqqiyoti hamda pedagogik jarayonda talabalar ongiga sigdirilayotgan ezgu g‘oyalarning hayot barqarorligini ta’minlashda qudratli omil (vosita) ekanligiga ishonch kabilar tashkil etadi.

Oliy ta’lim tizimida o‘qitish jarayonining o‘ziga xos xususiyatli tomonlari mavjud bo‘lib, samarali natijani kafolatlash asosan pedagogik texnologiyalar asosida amalga oshiriladi. Ilg‘or pedagogik tajriba ko‘pincha o‘qituvchilarning darsni qanday tashkil etishlariga bog‘liq bo‘lib, ana shu yerda ularning ijodkorligi namoyon bo‘ladi.

Tajribamizdan kelib chiqqan holda, shuni aytish joizki, tillarni o‘qitish jarayonida ham pedagogik texnologiyalar va interfaol ta’limni qo‘llash juda samaralidir, zero bunday dars o‘tish talabalarda mustaqil fikrlash, ijodiy ishlash, izlanish, tahlil etish, xulosa qilish, o‘zini baholash kabi malaka va ko‘nikmalarni shakllantiradi. Ta’lim tizimida pedagogik jarayonni tashkil etishda talabaning va o‘qituvchining munosabatiga alohida e’tibor qaratish zarurati jarayonga yangicha yondashuvni talab etmoqda. Shuning uchun har bir pedagog ta’lim muassasalaridagi o‘qitishning ijtimoiy-pedagogik qonuniyatlar va o‘qitish usullarini chuqur va atroflicha o‘rganib, darsni tashkil etishda asosli yondashishi muhimdir, zero ushbu qonuniyatlar va o‘qitish usullari o‘qituvchi va uning pedagogik faoliyati, kasbiy mahorati, malaka va ko‘nikmasi hamda ta’lim muassasalarida o‘qitishga yangicha yondashuvning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

So‘nggi paytlarda eng samarali usul hisoblangan ta’lim modellari, pedagogik innovatsion texnologiya va metodlarga qiziqish tobora ortib bormoqda. Interfaol metodlarningeng asosiy xususiyati o‘qituvchillarning o‘quv jarayonidagi tashabbuskorligidir. O‘quv tarbiya jarayonini takomillashtirish, talabalarning bilish qobiliyatini rivojlantirish o‘quv salohiyatining asosiy usul va ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari bilan mamlakatimiz va xorijdagi pedagog psixologlar shug‘ullangan. O’quv jarayoni qiziqarli bo‘lishi uchun insonga samimiy faol, bo‘lish

o‘zini erkin va qulay tutish va asosiy ta’lim natijasini, shaxsiy faoliyati natijasini ko‘rishga imkon beradigan ish uslublaridan foydalangan maqul.

Hozirgi kunda ta’limning interfaol usullari o‘quv jarayoninig asosini tashkil qiladi. Inson shaxsiy fikrini bildirib, muhokamada faol ishtirok etganda boshqa ishtirokchilar bilan birga muammoni hal etish yo‘llarini taklif qilgandagina qabul qilingan qaror inson uchun “O‘ziniki” bo‘lib qoladi. Biror marta bo‘lsa ham faol usullar qo‘llangan o‘quv jarayonida ishtirok etgan talabalar ularning insonlar bilan ishlashda samarali vosita ekanligini tan oladilar. O‘quv jarayonida yangi loyihalar g‘oyalari tug‘iladi, odamlar o‘zlari haqida ko‘proq narsalarni bilib oladilar, ular o‘zaro samarali muloqot qilishni o‘rganadilar.

Rusiyzabon talabalarga davlat tilini o‘rgatishda eng dolzarb masalalardan biri-ularning so‘z boyligini oshirishdir. Mazkur masalani hal etish ularda nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish, jumladan muloqot qilishga o‘rgatish uchun muhimdir. Bu esa, o‘z navbatida, mashqlarda dialogik matnlardan foydalanishni taqozo etadi.

Dilogik mashqlar tizimi asosida quyidagi tasnifiy mezonlar yotadi: Dialogik mashq bo‘lishi uchun bu mashq matnidagi leksik birliklar ma’lum bir uslubiy bo‘yoqda bo‘lishi, birinchi navbatda so‘zlashuv uslubi ko‘zda tutilishi kerak. Shu bilan birga, shakl jihatidan tayanch “kalit ko‘rsatkichi” sifatida berilsa, masq dialogik mashq hisoblanmasligi mumkin. Dialogik mashqlar tashabbuskorlik ruhidagi nutqning alohida ko‘rinishi hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, o‘qituvchi talabaning og‘zaki va yozma savodxonligini oshirishi uchun ta’lim modellari, pedagogik innovatsion texnologiya va metodlar vositasida darsni tashkillashtirib, hamda, dialogik mashqlardan foydalansa, ta’lim samaradorligini yanada oshirishga katta hissa qo‘shgan bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2012 yil 10 dekabrdagi PQ-1875 –son qarori.

2. “Xalq ta’limi” ilmiy metodik jurnal 2013 qbk 5-son

3. S.M. Yo‘ldosheva. Interfaol usullar. Toshkent, O‘zMU OPI, 2008.

X.I.Ibragimov, U.A.Yo‘dosheva, X.Bobomirzaev. Pedagogik psixologiya, Toshkent, 2009